

## MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI O'QUVCHILARNING PRODUKTIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

*Xoliqova Dilnoza Sirojiddinovna*

*Navoiy davlat pedagogika instituti “Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi”  
yo'nlishi tayanch doktaranti*

**Annotatsiya** Mazkur maqolada masofaviy ta'lif texnologiyalarining o'quvchilarning produktiv ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati va roli yoritilgan. Masofaviy ta'lif o'quvchilarga o'qish va bilim olish jarayonida mustaqillik berish bilan birga ularning vaqtini boshqarish, axborotni tahlil qilish, ijodiy fikrlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, maqolada masofaviy ta'lif jarayonidagi texnologik imkoniyatlar va qiyinchiliklar tahlil qilingan. Muallif masofaviy ta'lifning samaradorligini oshirishda interaktiv usullar va rejalshtirilgan o'quv dasturlarining ahamiyatini ta'kidlaydi hamda bu uslub yordamida o'quvchilarning raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga hissa qo'shilishi mumkinligini qayd etadi.

**Kalit so'zlar.** Masofaviy ta'lif texnologiyalari, produktiv ko'nikmalar, internet platformalari, video konferensiyalar, elektron darsliklar

**Annotation** This article highlights the importance and role of distance learning technologies in the formation of students' productive skills. Distance learning helps students develop their time management, information analysis, creative thinking, and self-assessment skills while giving them independence in learning and learning. At the same time, the article analyzes technological opportunities and challenges in the process of distance education. The author emphasizes the importance of interactive methods and planned educational programs in increasing the effectiveness of distance education and notes that this method can contribute to the formation of students as competitive individuals.

**Keywords.** Distance education technologies, productive skills, internet platforms, video conferences, electronic textbooks

**Аннотация** В данной статье подчеркивается значение и роль технологий дистанционного обучения в формировании продуктивных навыков студентов. Дистанционное обучение помогает учащимся развивать навыки тайм-менеджмента, анализа информации, творческого мышления и самооценки, одновременно давая им независимость в обучении и обучении. При этом в статье анализируются технологические возможности и проблемы в процессе дистанционного образования. Автор подчеркивает важность интерактивных методов и плановых образовательных программ в повышении эффективности дистанционного образования и отмечает, что этот метод может способствовать формированию обучающихся как конкурентоспособных личностей.

**Ключевые слова.** Технологии дистанционного образования, продуктивные навыки, интернет-платформы, видеоконференции, электронные учебники

**Kirish.** So‘nggi yillarda texnologik rivojlanish bilan bir qatorda ta’lim sohasida ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonida samaradorlikni oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda o‘quvchilarning produktiv ko‘nikmalarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida ta’lim jarayonlari asosan masofaviy ko‘rinishga o‘tishi bilan bu uslubning afzalliklari va kamchiliklari yaqqol ko‘zga tashlandi

Masofaviy ta’limning ahamiyati va imkoniyatlari.

Masofaviy ta’limning asosiy afzalliklaridan biri o‘quvchilarga o‘zlari uchun qulay vaqt va joyda bilim olish imkoniyatini taqdim etishdir. Bu uslub o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga, o‘z-o‘zini nazorat qilish va bilim olish jarayoniga yanada mas’uliyat bilan yondashishiga yordam beradi. Masofaviy ta’limning asosiy vositalari — internet

platformalari, video konferensiylar, elektron darsliklar va boshqalar — o‘quvchilarga bilim olish jarayonini individual tarzda olib borish imkonini beradi.

O‘quvchilarda produktiv ko‘nikmalarni shakllantirishda masofaviy ta’lim texnologiyalarining roli.

*O‘quvchilarning produktiv ko‘nikmalari deganda ularning muammolarni hal etish, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqa qobiliyatları tushuniladi. Masofaviy ta’lim bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi jihatlarga ega:*

1. Mustaqil o‘qish va o‘rganish qobiliyatini oshirish: Masofaviy ta’lim o‘quvchilarga o‘z vaqtini boshqarish va o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganishga o‘rgatadi. Bu esa ularning o‘z-o‘ziga nisbatan mas’uliyat va motivatsiyasini oshiradi.

2. Tezkor va keng ko‘lamli ma'lumotlarga kirish: Internet orqali o‘quvchilar zarur bo‘lgan ma'lumotlarni tez va oson topishlari, turli manbalardan bilim olishlari mumkin. Bu ko‘nikma ularning axborot bilan ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilish qibiliyatlarini rivojlantiradi.

3. Ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirish: Masofaviy ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interaktiv dasturlar va platformalar o‘quvchilarning ijodkorlik va innovatsion fikrlash qobiliyatini oshiradi. Masalan, raqamli loyihalar va onlayn munozaralar orqali o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini ifodalash va kreativ yondashuv ko‘nikmalarini mustahkamlashlari mumkin.

4. O‘z-o‘zini baholash va refleksiya: Masofaviy ta’lim texnologiyalari orqali o‘quvchilar topshiriq va testlarni o‘zlari tahlil qilish va baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning o‘z-o‘zini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

*Masofaviy ta’limning produktiv ko‘nikmalar shakllanishidagi qiyinchiliklari.*

Masofaviy ta’limning samaradorligini oshirishda texnologik jihozlanganlik, sifatli internet aloqasi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bevosita aloqaning yo‘qligi kabi qiyinchiliklar mavjud. Ba’zi o‘quvchilar uchun uy sharoitida darslarga diqqatni jamlash

qiyin bo'lishi mumkin. Shuningdek, masofaviy ta'larning doimiy onlayn rejimi o'quvchilarda charchoq va stress paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, masofaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashda ta'lim jarayonlarini rejalashtirish, tanaffuslar qilish va interaktiv metodlarni kengroq qo'llash lozim.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning produktiv ko'nikmalarini shakllantirish masalasida ko'plab olimlar o'z qarashlarini bildirgan. Ularning fikrlari asosida masofaviy ta'lim texnologiyalarining o'quvchilar uchun qanchalik foydali ekanligi haqida quyidagi tavsiflarni keltirish mumkin:

1. Zayniev M. ta'kidlashicha, masofaviy ta'larning asosiy ustunligi – o'quvchilarga o'z sharoitlarida va qulay vaqtda ta'lim olish imkoniyatini taqdim etishdir. Uning fikriga ko'ra, bu uslub o'quvchilarni vaqtini boshqarishga, mustaqil o'qish va bilim olishga o'rgatadi va natijada ularning o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini oshiradi.

2. S. G'aniyev o'z tadqiqotlarida masofaviy ta'larning axborot bilan ishslash, muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash kabi ko'nikmalarni shakllantirishda samarali ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, o'quvchilar masofaviy ta'lim orqali keng axborot manbalariga tezkor kirish huquqiga ega bo'lib, o'z bilimlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Anderson T. va Elloumi F. raqamli ta'lim muhitlarining o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishda samarali ekanligini qayd etishadi. Ular masofaviy ta'lim o'quvchilarga o'z g'oyalarini erkin ifoda etish, yangi yechimlarni topish va kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda yordam berishini ta'kidlaydi.

4. Sultonova A. masofaviy ta'lim jarayonidagi texnologik muammolarga e'tibor qaratib, sifatli texnik jihozlanganlik va kuchli internet aloqasining zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, masofaviy ta'larning samaradorligi bu sharoitlarning ta'minlanganligi bilan chambarchas bog'liq va sharoitlar yetarli darajada bo'lmaganda, o'quvchilarda stress va qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

5. Borovikov K. masofaviy ta'lim orqali o'quvchilar o'zlarining mustaqil o'quv jarayonlarini tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkinligini

aytadi. Uning fikricha, masofaviy ta'lim o'quvchilarni o'z-o'zini baholash va bilim olish jarayoniga yanada chuqurroq yondashishga undaydi, bu esa ularning kelajakda o'z ustida ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, masofaviy ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning o'z bilim va qobiliyatlarini yanada samarali rivojlantirishga imkon yaratadi.

**Xulosa.** Masofaviy ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning produktiv ko'nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun zamonaviy usullar va dasturlarni qo'llash, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtaida kuchli aloqalarni saqlash zarur. Ta'lim sohasidagi islohotlar orqali masofaviy ta'limning samaradorligini oshirish va o'quvchilarning kelajakda raqobatbardosh shaxs bo'lib yetishishlariga zamin yaratish mumkin.

### **Takliflar.**

- Masofaviy ta'lim texnologiyalari qulay imkoniyatlarida foydalanish, vaqt tejamkorigini ta'minlaydi bu sababdan o'quvchilarni ko'proq jalb qilishga erishish
- Masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanganda diqqatni jamlashga erishish uchun uy sharoitida qulay vaqtini belgilab olish.
- Ushbu texnologiyalarda qayta o'qitishga erishish ya'ni shogirdlar ishtirokida darslar tashkil etish

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Bekmuratov, O. (2021). Masofaviy ta'limning o'quvchilarga ta'siri va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Yangi O'zbekiston nashriyoti.
2. D.A Axatova,F.O Xodjiyeva,F.A Aminova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" Darslik Navoiy -2023
3. Norboyev, A., & Rahmatova, S. (2020). Ta'lim texnologiyalarini joriy qilishning asosiy tamoyillari. Samarqand davlat universiteti.
4. Islomova, Z. (2019). Ta'limdi innovatsiyalar: yangi imkoniyatlar va cheklar. Pedagogika va psixologiya jurnali, 3(1), 45-55.
5. UNESCO (2020). Digital Learning and Education Development Report. Parij: UNESCO nashriyoti.